

AMIR TEMUR'S TRUE HUMAN CHARACTERISTICS

Qahhorov Salohiddin Najmiddin oglu

Student. Faculty of Military Education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abduvaliyev Lochinbek Abdulatif oglu

Student. Faculty of Military Education, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Saloxiddinqahhorov@gmail.com

Annotation:

Amir Temur's great contribution to history is that he improves the procedures, legal framework, spiritual and educational aspects of the domestic and foreign policy of the state system of governance in the new historical conditions. In this regard, our first President IA Karimov said: Amir Temur is our glory, our pride. The symbol of Amir Temur's genius of our people is a symbol of our spiritual power. To understand the personality of Amir Temur, to know the history means to understand ourselves. To honor Amir Temur is to strengthen our confidence in our great future, based on our cultural strength and deep-rooted roots in history. The state of Amir Temur developed science, spirituality, enlightenment and industry at an unprecedented rate, and in science it was rightly interpreted as the second period of the Renaissance

Keywords:

Political, social, religious, historical, military, heroic

Bizning buyuk Amir Temur bobomiz 1336-yil 9-aprelda Movarounnahrning go'zal shaharlaridan biri bulgan Kesh (hozirgi Shahrisabz) ga qarashli bulgan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga keladi. Bobomizning otasi Amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bulgan.onasi Takina xotun Buxorolik bulgan. Amir Temur shaharlarda ilim-fan, madaniyatini rivojlantirish uchun ko'plab ilmiy muassasalar kurishga amr qilgan.Madrasalarda diniy fanlar bilan barobar matematika meyyorchilik astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi fanlarning o'qitilishiga alohida etibor berilgan.Temur tuzuklarida aytilishcha musulmonlarga diniy madrasalarda ta'lim berish shariat aqidalari va islom dini ilimlari, tafsir, hadislardan, dars berish uchun sohibquron tomonidan xar bir shaharga olimlar va muhandislar tayinlangan. Talabalarga uz davring yirik allomalari dars bergan. Madrasa muhandislariga ko'p moash to'langan ular farovan hayot kechirganlar "Temur tuzuklari" da " saidlar, ulamoyu mashoyiqlar, donolar tarixchilarni e'tiborli kishilar hisoblab, hurmatlarni joyga qo'ydim. Ular bilan qimmatli fikrlashdim" deb yozadi. Garchi turon zaminida olimlar, muhandislar, ustalar yetarli bulsada, Amir Temur Xindiston, Iroq va Erondan xam olim-u fuzalolarni Samarqandga olib kelgan. Amir Temur qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o'ljasi shu o'lkaning rassomlari, moxir ustalari xisoblangan. U o'sha yerlik olimu ulumolarga mexribonlik kursatgan.Albatta bu tadbirlar juda yaxshi natijaga olib kelgan. Xilda Xukxemning e'tirof etishicha, "Temur dunyoga kelgan yurtda falsafa,tibbiyot, matematika,astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot soxalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotiga asos bolib xizmat qildi. I.A. Karimov asarida takidlaganidek "Amir Temurning quroni Karimni yod bilgani diniy baxslarda yirik ulamolar bilan barobar so'z yurutgani uning ma'naviyati, iymonu-diyonati qanchalar pok va mukammal ekanini bildiradi". Amir Temur shayxu-islom,sayyidlar,ulamolar,qorilar orqali jamiyatda tinchlikni saqlash, uni ma'naviy yuksaltirish, odamlarni islom dini farzlari talablari asosida tarbiyalash jarayonini yanada faollashtirgan. Amir Temurning islom diniga bo'lgan munosabatidagi eng muhim qirra, bu - musulmonchilik aqidalarining jamiyat osoyishtaligi, ravnaqi, ishtimoiy adolat,iymon butunligi, ma'na viy poklik uchun xizmat qildirishga safarbar etilishidir.Uning e'tiqodiga kura, davlat davlatligini, din esa dinligini qilishi kerak. Bu g'oya bugungi zamonda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgan emas. Demoqchimizki, u davrda islom dini jamiyatning ma'naviy yuksalishiga, aholining dunyo qarashi, tafakkuri o'sishiga beqiyos xissa qo'shgan. Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni

qunt bilan o'qisak, o'rgatsak, uning kup yaxshi xislatlari: to'g'rilik muruvvatlilik el yurtiga muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkun. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"lari Ibin Arabshohning Temur haqidagi xabarlarda taqdir adabiyotlari va boshqa asarlari keltirilgan sohibquronning ibratli ishlari pand nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el yurt va fuqarolarning tashvishi mehr-muruvvat, qushnichilikka rioya qilish va nihoyat mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlaridir. Sohibquronning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlar beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari say harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, hanahohlar, saroylar, bozorlar, qa'lalar, kanallar va boshqa inshootlarning son sanog'i yo'q. Amir Temurning bevosita qahramonligi bunyod etilgan Bibihonim jome masjidi, Go'ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangi Ota maqbaralari Oqsaroy va Shohi Zinda memoriy mo'jizalari Bog'i Chinor Bog'i dilkusho Bog'i behisht Bog'i baland singari bog'lari bor.

Amir Temur siyosiy va harbiy sohada xaqiqiy hukumdorlik faoliyatini namoyon qilgan bulsa, uning iqtisod, madaniyat, ma'naviat bunyodkorlik sohasidagi faoliyati usha davr hukumdorlarining an'anaviy yo'lga mos kelmaydi. Shuning uchun ham Amir Temur biz uchun buyukdir. Amir Temur bizning ma'naviy yo'l boshchimizdir. Chunki uning oshirgan xar bir ishi, aytgan xar bir so'zi jamiyat qurayotgan avlodlar uchun dasturi-omillardir. O'zbek millatini kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan xissasini shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bolsa Amir Temur siyosini eslashi kerak Amir Temurdek tarixiy shaxslarni sarkarda va sohibquronlarni zamon talablari va extiyoji olib keladi va u zamonning fazilat va xususiyatlarni namoyon bolishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. I.A Karimov "Amir Temur xaqida so'z" Toshkent 1996 yil
2. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yuq"
3. I.A. Karimov "Amir Temur faxrimiz g'ururimiz"
4. I.A. Karimov "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent 1998 yil
5. I.A. Karimov "Istiqlol va ma'naviyat" Toshkent 1994 yil
6. "Amir Temur jaxon tarixida" 1996 Toshkent yil
7. www.ziyo.edu.uz